

## JADIDCHILIK HARAKATI YOSHLAR KO‘ZGUSIDA

**Sharipova Durdona**

Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

*Annotatsiya: Ushbu maqola orqali biz jadidchilar aslida kim edi ularning ahvoli qanday kechdi degan savollarga qisqacha holda yoritib berdik*

*Kalit so‘zlar: qaramlik, qadriyatlar jadidchilik, jadid maktabi*

Turkistonda jadidchilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yetilgan edi. Ma’lumki, Yevropa XVIII-XIX asrlarda o‘z boshidan texnika taraqqiyotini kechirib, XX asr madaniyati va turmushi uchun mustahkam poydevor yaratilgan edi. Osiyo, jumladan, Turkiston esa bu sohada orqada qolib ketgandi. Uchta o‘zbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo‘qon)ning o‘zaro birodarkushlik urush va nizolari, Rossiyaning bu davlatlarga bostirib kirishi, mintaqaning mustamlaka holatiga tushib qolishi, mustamlakachilik milliy zulmning o‘rnatilishi va uning kuchayib ketishi o‘sha qoloqlikni yanada chuqurlashtirib yuborgan edi. Jadidchilik XIX asr oxiri –XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy –siyosiy, ma’rifiy harakatdir. «Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, «yangi» degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80 –yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851 –1914) rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U 1884 yil martda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va u «usuli savtiya tadrijiya» («rivojlanuvchi tovush usuli») maktabi bo‘lgan. Yangicha usul –«usuli jadid» –savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o‘qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan. Ismoilbek 1893 yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi.

“Biz Kim, mulki turon amiri turkistonmiz, biz millatlarning eng ulug‘i turkning bosh bog‘inimiz” Amir Temur. Bir paytlar mana shunday ulug‘vor nomga sazovor

bo'lgan Turkistonimiz XIX asrdan mustabit sovet hokimiyatiga qaramlikka tusha boshladi. Ha QARAMLIK.. Bu oddiy so'z bo'lishi mumkin, lekin mana shu so'z davlat tariximizda I asrdan ko'p vaqt davomida keng ma'noda o'rin egalladi. Ya'ni bu davrda biz o'z Sharqona anana, urf-odat, qadriyatlarimizdan ma'lum ma'noda cheklandik. Haqqoniy tariximizni o'rgana olmadik, o'z yozuvimiz va tilimizdan ham ayrila boshladik. Xullas qilib aytganda ko'zimiz ochig'u, lekin uxlayotgandek go'yo. Mana shunday jarayonlar ketayotgan paytda Jadidchilik [jadid\_arabcha "yangi"] degan yangi g'oya paydo bo'ldi. Jadidchilik XIX oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakatdir. Harakat XIX asrning 80-yillari Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqala boshladi. Jadidchilik harakatining dastlabki vakillaridan bo'lmish Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini tashkil etdi. Bunday maktablarda zamonaviy ilmlar o'rgatila boshlandi. Bu to'lqin Turkistonimizga ham kirib kela boshladi. Asta-sekin Buxoro, Qo'won, Toshkent, Samarqanda jadid maktablari tashkil etildi. Shu o'rinda aytish kerakki Turkiston jadidlari orasida: M. Behbudiy, M. Abdurashidxonov, A. Avloniy, U. Asadullaxo'jayev, A. Zohiriy, Hamza, I. Brohimov, O. Mahmudov, A. Ibodiy, Cho'lpon va boshqalar bor edi. Jadidlar ertani ko'ra oladigan insonlar edi. Agar shunday davom etaversa butunlay xalq sifatida yo'qolishini anglagan edilar. Ularning yuragida mustaqil bo'lish g'oyasi jo'sh uraurardi. Jadidlar buni qanday amalga oshiramiz? degan savolga javob topdilar: Ular ishni xalqni ma'rifatli qilishdan boshladi. Rus mustamlakachilariga qarshi kurash turli ko'rinishlarda bo'lsada davom etdi. Bu kurash boshida millatning ilg'or fikrli ziyolilari turardi. Dastlab maktab-maorif, yosh avlod talim-tarbiyasini isloh qilish g'oyasidan boshlangan bu harakat keyinchalik o'z ichiga siyosiy muammolarni ham qamrab oldi. Avval ma'orifni isloh qilishdan boshlangan Turkiston jadidchilik harakat 1917-yil fevraldan yangi siyosiy o'zgarish kasb eta boshladi. Jadidlar asta-sekin guruh sifatida birlashib o'z tashkilot va ma'rifiy nashrlarni shakllantira boshladi. So'ngra milliy demokratik davlatchilikni boshqarish ishlarida faol ishtirok etdilar. Yagona maqsad

yo'lida ushbu tashkilotlar omma orasida targ'bot-tashviqot ishlarini olib bordilar. Jadid maktablarini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish ishlari yo'lga qo'yildi. Doimiy ravishda bu ishlarga Chor hukumati va ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi jihatidan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildi. Shunday sharoitda 1911-yil 50 ta, 1913-yil Esa barcha jadid maktablari yopip qoyildi. Lekin yangi usul maktablarini tashkil qilish davom etgan 1917-yilda 100 ga yaqin jadid maktablari mavjud edi. Podsho hukumati aholining faolligi oshib borayotganidan cho'chib Turkiston xalqini jahon taraqqiyotidan uzib qo'yish maqsadida musulmon davlatlardan o'lkaga kirib kelayotgan ilg'or nashrlarni ta'qiqladi. lekin, baribir adabiyotlarning kirib kelishi to'xtamadi. Endi mustabit hokimyat ilg'or ziyolilarni qirg'in qilishga kirishdi. Yuraklarni larzaga keltiradigan o'sha kun...

1938-yil 4-oktabr kuni A. Fitrat, A. Cho'lpon, A. Qodiriy va Yana boshqa yuzlab o'zbek ziyolilari Stalin tasdiqlagan hujjatga muvofiq otib tashlandi. Turkistonni bosqindan, qoloqlik botqog'idan ozod qilishga bel bog'Lagan, buni qurolli qozg'alon emas, o'qish, ta'lim sifati bilan amalga oshirishga shubha qilmagan ma'rifatparvarlar "xalq dushmani" sifatida otuvga hukm qilindi. Baholangki, bu insonlarni qatl qilingani uzoq yillar millatdan yashirildi. Bugun MUSTAQILmiz. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng qatag'on qilinganlarning ko'pchiligining nomi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning porloq nomi tiklandi. Muhtaram 1-prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi bilan 2000-yil 12-may Toshkentning Yunusobod tumani, Bo'zsuv kanali yaqinda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuyi tashkil etildi. 2001-yildan 31-avgust qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadi. 2002-yil 31-avgustda "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi ochildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'qtuvchilar kuni munosabati bilan bolib o'tgan tantanada qatl etilgan jadidlar: A. Avloniy, M. Behbudiy va M. Abdurashidxonovlarni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlash to'g'risida qaror qabul qildilar. Xo'sh, aytingchi mustaqillik uchun yelib-yongan, kerak bo'lsa jon fido qilgan mana shunday "Yurt qahramonlari"ni qanday qilib unitishimiz mumkijn? Albatta yo'q! Bugungi kundagi yuksalishimizga, mustaqilligomizga, jahon davlatlari Orasiga O'ZBEKISTON nomini

kiritishimizga hissa qo‘shgan Shahidlar hamisha, har vaqt YOSHLAR ya’ni biz kelajak vorislari yuragida abadiy yashagaydir. Biz mana shunday ajdodlarimizga munosib Avlod bo‘lishga harakat qilamiz! Men fikrlarimni Muhtaram 1-prezidentimiz I. Karimov gaplari bilan tugatmoqchiman: “Fidoyi jadedlarimizning hayoti biz uchun o‘rnak, yoshlarni istiqloq, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, ularning bosib o‘tgan kurash yo‘lini o‘rganish zarur”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Qosimov B. “Milliy uyg‘onish”, T., “Sharq”, 2004 yil,
2. .Mustafo Cho‘qayo‘g‘li, Istiqloqljallodlari, Toshkent, 1992
3. Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. –Т.: Ёзувчи, 1994.
4. Жадидчилик: ислохот, янгилаиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т.: 1999.
5. Ҳасанов, Р., & Тайронов, Ё. (2021). THE ROLE OF LOCAL ENTREPRENEURS IN THE COMPOSITION OF THE NATIONAL PRESS IN TURKESTAN AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka, 1(1).